




**FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**FARG'ONA VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2023- yil
yanvar-iyun**

2023- yilning yanvar-iyun oylarida, Farg'ona viloyati jami 4 723,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 121,3 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



o'sish sur'ati,% da



Yanvar-iyun

Yanvar-may

Yanvar- aprel

Qurilish ishlari hajmining , mlrd....




2022- yil – 109,0 %

2023- yil – 121,3 %



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



Tuman va shaharlar kesimida



Qurilish sohasi viloyatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 116,6 %ni tashkil etib, 625 birlikga ko'paygan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 54,2 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 114,1 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,3 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 123,8 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 32,5 foiz ulushni va 117,9 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.



Tuman va shaharlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2022- y.	01.07.2023- y.	
Farg'ona viloyati	3771	4396	116,6
Farg'ona sh.	1027	1191	116,0
Qo'qon sh.	353	412	116,7
Quvasoy sh.	129	148	114,7
Marg'ilon sh.	334	347	103,9
Oltiariq t.	138	162	117,4
Qo'shtepa t.	112	130	116,1
Bag'dod t.	177	192	108,5
Buvayda t.	137	158	115,3
Beshariq t.	98	117	119,4
Quva t.	155	191	123,2
Uchko'prik t.	198	232	117,2
Rishton t.	98	127	129,6
So'x t.	87	93	106,9
Toshloq t.	146	181	124,0
O'zbekiston t.	102	155	152,0
Farg'ona t.	142	173	121,8
Dang'ara t.	142	164	115,5
Furqat.t.	87	100	114,9
Yozyovon t.	109	123	112,8





2023- yil 1-iyul holatiga ko'ra Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da


Farg'ona sh. (27,0)



Qo'qon sh. (9,4)



Marg'ilon sh. (7,9)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyun uchun


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Farg'ona viloyati	4723,6	1007,8	2808,1	907,7
<i>Tuman va shaharlar:</i>				
Farg'ona sh.	1143,0	102,1	940,1	100,8
Qo'qon sh.	360,2	49,0	218,0	93,2
Quvasoy sh.	128,8	2,5	101,0	25,3
Marg'ilon sh.	554,0	306,0	176,2	71,8
Oltiariq	175,7	0,3	116,5	58,9
Qo'shtepa	200,9	74,9	91,7	34,3
Bag'dod	167,0	9,3	114,7	43,0
Buvayda	153,0	0,3	101,3	51,4
Beshariq	65,8	5,6	34,0	26,2
Quva	273,4	125,3	81,6	66,5
Uchko'prik	135,6	0,4	101,4	33,8
Rishton	79,6	0,4	50,5	28,7
So'x	91,1	0,9	72,5	17,7
Toshloq	255,5	51,1	129,1	75,3
O'zbekiston	154,1	99,0	40,5	14,6
Farg'ona t	454,9	106,6	289,5	58,8
Dang'ara	154,5	69,0	49,0	36,5
Furqat	59,7	0,3	36,2	23,2
Yozyovon	116,8	4,8	64,3	47,7



2023- yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1007,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 222,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 9,5 % punktga ko'paygan.


Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.

■ Yirik qurilish tashkilotlari ■ Kichik va mikrofirmalar ■ Norasmiy sektor



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Hududlar kesimida o'sish sur'ati,
% da



MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami yirik qurilish ishlari hajmidagi eng yuqori o'sish sur'ati O'zbekiston tumanida (2022-yilga nisbatan 162,5 marta), Quva tumanida (2022-yilga nisbatan 122,1 marta) va Qo'shtepa tumanida (2022-yiliga nisbatan 106,3 marta) ga to'g'ri keldi.

Ulushi % da




2022- yil
yanvar-iyun



2023- yil
yanvar-iyun

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami yirik qurilish ishlari hajmidagi ulushi



MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami yirik qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahrida (hududdagi jami yirik qurilish ishlari hajmining 30,4 %i), Quva tumanida (hududdagi jami yirik qurilish ishlari hajmining 12,4 %i) va Farg'ona tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 10,6 %i) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Hududlar kesimida o'sish sur'ati, % da



Yillar kesimida



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori o'sish sur'ati Qo'shtepa tumanida (2022- yilning mos davriga nisbatan 165,9 %), Yozyovon tumanida (2022- yilning mos davriga nisbatan 129,4 %), Buvayda tumanida (2022- yilning mos davriga nisbatan 122,2 %) ga to'g'ri keldi.



2023-yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonava mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,5 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 7,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,8 % ni tashkil etgan holda 2 808,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonava mikrofirmalar, ulushi, % da

59,5

2023- yil
yanvar-iyun

67,2

2022- yil
yanvar-iyun



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonava mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Farg'ona shahriga (940,1 mlrd. so'm, 109,2 %), Farg'ona tumaniga (289,5 mlrd. so'm, 100,8 %), Qo'qon shahriga (218,0 mlrd. so'm, 101,8 %)ga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida o'sish sur'ati, % da

Farg'ona sh.	81,0
Qo'qon sh.	163,8
Quvasoy sh.	227,7
Marg'ilon sh.	333,7
Oltiariq t.	96,9
Qo'shtepa t.	47,8
Bag'dod t.	91,5
Buvayda t.	73,2
Beshariq t.	117,8
Quva t.	179,2
Uchko'prik t.	117,4
Rishton t.	102,4
So'x t.	99,4
Toshloq t.	97,1
O'zbekiston t.	21,8
Farg'ona t.	515,3
Dang'ara t.	129,2
Furqat t.	63,5
Yozyovon t.	93,8

Yillar kesimida



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida norasmiy sektor tomonidan eng yuqori o'sish sur'ati Farg'ona tumanida (2022-yining mos davriga nisbatan 5,2 m.), Marg'ilon shahrida (2022-yining mos davriga nisbatan 3,3 m.), Quvasoy shahrida (2022-yilning mos davriga nisbatan 2,3 m.) ga to'g'ri keldi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 19,2 % ni tashkil etdi yoki 907,7 mlrd.so'm miqdorida qayd etildi. 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-iyun

776,7
mlrd. so'm

2023- yil
yanvar-iyun

907,7
mlrd. so'm

21,0 %

19,2 %

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 147,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4 576,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,1 % va 96,9 % ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar-iyunda

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **70,2 %** i yoki **3 314,7 mlrd. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 872,2 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **26,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 1 612,4 mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **48,6 %** ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 830,1 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **25,1 %** ni tashkil etdi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyunda

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Farg'ona viloyati	4 723,6	121,3	3 314,7
<i>shahar va tumanlar</i>			
Farg'ona sh.	1143,0	103,8	774,3
Qo'qon sh.	360,2	116,6	250,9
Quvasoy sh.	128,8	101,6	61,2
Marg'ilon sh.	554,0	144,8	504,2
Oltiariq	175,7	103,5	84,6
Qo'shtepa	200,9	161,9	165,9
Bag'dod	167,0	100,3	98,1
Buvayda	153,0	100,5	115,6
Beshariq	65,8	113,2	37,2
Quva	273,4	231,2	227,3
Uchko'prik	135,6	104,4	100,6
Rishton	79,6	102,1	50,2
So'x	91,1	100,2	71,8
Toshloq	255,5	142,5	173,5
O'zbekiston	154,1	151,0	137,4
Farg'ona	454,9	138,7	205,8
Dang'ara	154,5	190,2	146,5
Furqat	59,7	84,3	44,6
Yozyovon	116,8	91,6	65,0


*hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyunda

Hududlar kesimida o'sish sur'ati,
% da

Yillar kesimida
o'sish sur'ati

Farg'ona sh.	67,7
Qo'qon sh.	69,7
Quvasoy sh.	47,5
Marg'ilon sh.	91,0
Oltiariq t.	48,1
Qo'shtepa t.	82,6
Bag'dod t.	58,7
Buvayda t.	75,7
Beshariq t.	56,5
Quva t.	83,1
Uchko'prik t.	74,2
Rishton t.	63,1
So'x t.	78,8
Toshloq t.	67,9
O'zbekiston t.	89,2
Farg'ona t.	45,2
Dang'ara t.	94,8
Furqat t.	74,8
Yozyovon t.	55,7



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida yangi qurilish ishlari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati Dang'ara tumanida (146,5 mlrd. so'm jami hajimga nisbatan 94,8 %), Marg'ilon shahrida (504,2 mlrd. so'm jami hajimga nisbatan 91,0 %), O'zbekiston tumanida (137,4 mlrd. so'm jami hajimga nisbatan 89,2 %) ga to'g'ri keldi.



Ulushi % da



2023- yil
yanvar-iyun



2022- yil
yanvar-iyun

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 24,6 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 14,6 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 14,8 % punktga kamaydi, 49,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi, 26,3 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 12,6 % ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 86,6 % (2,8 % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,8 % ni tashkil etdi (0,4 % punktga kamaydi).



ulushi % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,1 % punktga ko'paydi va 12,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 87,2 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,1 % punktga kamaydi.



● **Yirik qurilish tashkilotlari ulushi**

● **Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi**

2022- yil yanvar-iyun

2023- yil yanvar-iyun



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyunda

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti -rilgan qurilish ishlari
Farg'ona viloyati	4 723,6	3 421,9	1081,0	220,7

Shahar va tumanlar :

Farg'ona sh.	1143,0	755,7	287	100,3
Qo'qon sh.	360,2	225,2	106,4	28,6
Quvasoy sh.	128,8	104,5	20,7	3,6
Marg'ilon sh.	554,0	522,2	27,2	4,6
Oltiariq	175,7	132,1	39,0	4,6
Qo'shtepa	200,9	193,2	7,2	0,5
Bag'dod	167,0	140,7	20,1	6,2
Buvayda	153,0	102,5	43,1	7,4
Beshariq	65,8	48,0	14,9	2,9
Quva	273,4	239,4	23,5	10,5
Uchko'prik	135,6	78,8	51,3	5,5
Rishton	79,6	65,9	10,4	3,3
So'x	91,1	53,2	31,7	6,2
Toshloq	255,5	137,8	117,7	-
O'zbekiston	154,1	121,7	32,4	-
Farg'ona	454,9	268,7	162,8	23,4
Dang'ara	154,5	122,9	26,1	5,5
Furqat	59,7	47,3	8,3	4,1
Yozyovon	116,8	62,1	51,2	3,5



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyunda

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	1 182,2	118,8

Shahar va tumanlar:

Farg'ona sh.	3 612,5	98,7
Qo'qon sh.	1 180,9	99,7
Quvasoy sh.	1 295,5	99,5
Marg'ilon sh.	2 236,5	142,3
Oltiariq	781,4	101,3
Qo'shtepa	981,2	157,7
Bag'dod	729,1	98,3
Buvayda	630,2	98,3
Beshariq	275,2	111,3
Quva	1 005,5	227,0
Uchko'prik	571,1	104,9
Rishton	373,4	100,2
So'x	1 107,4	98,4
Toshloq	1 186,9	139,5
O'zbekiston	664,9	161,2
Farg'ona	2 086,7	141,3
Dang'ara	889,3	199,0
Furqat	477,4	82,5
Yozyovon	991,6	89,6



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyunda

Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Farg'ona shahri – 3 612,5 ming. so'm yoki, 2022- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 98,7 %, undan keyin mos ravishda Marg'ilon shahri – 2 236,5 ming. so'm (yoki 142,3 %), Farg'ona tumani – 2 086,7 ming. so'm (yoki 141,3 %) bilan egalladi, va Quvasoy shahar – 1 295,5 ming. so'm (yoki 99,5 %)

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (73) 241-98-42